

**journal homepage:**  
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## THE JEWEL OF THE SOUTH - SANGARDAK

**Fatima T. Kuvandikova**

*Master's student*

*Termiz State University*

*Termiz, Uzbekistan*

**Zafar M. Mardonov**

*Lecturer*

*School 31, Shorchi district*

*Shorchi, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "Sangardak" Tourism, Kars, Degikanora, Shorchiob, Khandiza, Parking, Guest houses

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

**Abstract:** This article examines the ways and prospects of tourism development in the "Sangardak" basin. Also, some problems arising in the water basin were analyzed and their solutions were shown. Along with this, prospects for development of tourist opportunities of Khysor Mountains and development of international mountain tourism in Uzbekistan were developed.

## JANUB DURDONASI - SANGARDAK

**Fotima T. Kuvandikova**

*Magistrant*

*Termiz Davlat universiteti*

*Termiz, O'zbekiston*

**Zafar M. Mardonov**

*o'qituvchi*

*Sho'rchi tumani 31-maktab*

*Sho'rchi, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** "Sangardak" Turizm, Kars, Degikanora, Sho'rchiob, Xondiza, Avtopark, Mehmon uylar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada "Sangardak" havzasidagi turizmni rivojlantirish yo'llari va istiqbollari o'rganilgan. Hamda suv havzasida kelib chiqayotgan ba'zi bir muommolar tahlil qilingan va yechimlari ko'rsatib o'tilgan. SHu bilan bir qatorda, Xisor tog'larining turistik imkoniyatlarini ishlab chiqish, O'zbekistonda

## ЖЕМЧУЖИНА ЮГА - САНГАРДАК

**Фатима Т. Кувандикова**

магистрант

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

**Зафар М. Мардонон**

преподаватель

Школа 31, Шорчинский район

Шорчи, Узбекистан

### О СТАТЬЕ


**Ключевые слова:** Туризм  
"Сангардак", Карс, Дегиканора, Шорчиоб,  
Хандиза, Автостоянка, Гостевые дома

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются пути и перспективы развития туризма в бассейне «Сангардак». Также были проанализированы некоторые проблемы, возникающие в водохранилище, и показаны пути их решения. Наряду с этим были разработаны перспективы развития туристических возможностей Хысорского хребта и развития международного горного туризма в Узбекистане.

### KIRISH

Sangardak sharsharasi O'zbekistonning Tojikiston bilan chegaradosh hududida, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida joylashgan.

Sangardakdaryo - Surxondaryoning o'ng irmog'i. Hisor tizmasining janubiy – g'arbiy yon bag'ridan boshlanadi. Sangardak sharsharasi Sariosiyo hududida, Denov shahridan 30 km va Termiz shahridan 205 km uzoqlikda joylashgan. Sariosiyo o'zining ichki kontinental subtropik iqlimi bilan mashhur bo'lib ushbu iqlim hududida o'ziga xos betakror mikroiqlim yaratadi.



Tuman hududi bo'ylab, Hisor tizmasi cho'zilgan bo'lib, unda Surxondaryo, To'palondaryo, Obizarang va boshqa tog' daryolari oqib tushadi.

## ASOSIY QISM

Sangardakdaryo Hisor tizmasining janubiy – g'arbiy yonbag'ridan 3800 m balandlikdan boshlanadi. Uzunligi 114km, havzasining maydoni 948 km<sup>2</sup>. Suv yig'ish maydoni 889 km<sup>2</sup> o'rtacha balandligi 2286 m. Yuqori oqimida Qizilsuv qo'shilgunga qadar "DEGIKANORA" deb ataladi.

Sangardakga bir qancha katta –kichik soylar qo'shiladi. O'ng tomonda Qizilsoy (15 km) Sho'rchiob (11 km) Molongur (23 km) chap tomondan Xondiza (25 km) va Nilu (11 km) Sangardak asosan, mavsumiy qor va yer osti suvlardan to'yinadi.

Maksimal suv sarfi 44 m<sup>3</sup>/sekund (may oyida), noyabr – yanvarda 4,38 -4,04 m<sup>3</sup>/sekund.

Sangardakning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 15 m<sup>3</sup>/sekund o'rtacha oqim moduli 17,0 l/sekund, km<sup>2</sup>.

Bizga ma'lumki Hisor tog'i mamlakatimizdagi eng baland tog' tizmalaridan hisoblanadi. Bu tizmada tabiatimizning serjilo obektlari va u yerlarning hayvon va o'simliklarini asl holatini asrab qolish uchun bir nechta o'rmon xo'jaliklari va qo'riqxonalar barpo etigan.

Shular jumlasidan "UZUN" o'rmon xo'jaligini olishimiz mumkin. U Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun va Denov tumani hududini o'z ichiga qamrab oladi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki Sangardak Uzun o'rmon xo'jaligining eng yirik bo'limidir.

Hisor tog' yonbag'irlarida yog'in miqdori 1200 – 1500 m ga yetadi.

Hisor tog'i 3000 – 3500 m balandlikgacha davom etadi. Bu hududlarda jigarrang tuproqlar, o'tloq dasht tuproqlari tarqalgan. Jigarrang tuproqlarning yuza qatlamida qo'ng'ir – jigarrang yoki to'q qo'ng'ir tusda bo'ladi. Chirindi miqdori 15sm chuqurlikgacha, o'rta hisobda 4 – 5 % ni ayrim joylarda 8 – 10 % ni tashkil etadi. 1 metr chuqurlikda esa, 0,5 % ga tushib qoladi. Tog'li hududda bargli o'rmonlar ham uchraydi. Bu yerlarda olma, tilog'och, yong'oq, bodom, do'lana, pista kabi mevali va zarang, terak, tol, qayin, chetan kabi mevasiz daraxtlar o'sadi.

Hisor davlat qo'riqxonasida to'ng'iz, tulki, Turkiston silovsini, kaklik, xongul, quyon, jayron, qor qoploni xatto malla ayiq kabi hayvonlarni uchratish mumkin. Ikki tog' oraligidagi jarlikda Xondiza konchilar qishlog'i joylashgan bo'lib, uning aholisi ko'mir qazib chiqarish bilan shug'ullanadi. U bilan Sangardak sharsharasi orasidagi masofa atiga 30 km ni tashkil etadi. Bu go'zal va maftunkor Sangardak sharsharasi adimdan o'zining betakror tabiatini bilan insonlarni, o'ziga jalb qilib kelgan.

Xozirgi kunda bu yerga nafaqat mahalliy aholi balki chet el turistlari ham tashrif buyurmoqda. Sangardak sharsharasiga Sariosiyodan avtomobil transporti orqali 60 km yo'l bosib, yetib olish mumkin.

Sangardak sharsharasi tog‘ daryosidan emas, g‘orlar ichidagi kars daryolaridan shakllanadi, goya toshlar orasidan sizib chiqadi. Shu sababli xalq orasida sharshara haqida turli xildagi afsonalar paydo bo‘lgan.



Sangardak sharsharasi O‘zbekistondagi eng baland sharsharalardan bo‘lib, uning balandligi 60 – 70 metrgacha. Sharsharaning suvi bahor oylarida juda serob bo‘ladi. Shu vaqtida balandligi 100 metrgacha yetadi, sharshara may oyi o‘rtalaridan to sentabr oylarigacha juda keng va serjilo bo‘ladi. O‘sha paytda sharsharaga eng ko‘p mehmonlar tashrif buyurishadi.

Bu esa sharshara hududida ba’ zi bir muammolarni keltirib chiqaradi.

Masalan mehmonlar soni ko‘paygan davrda, mehmon uylari yetishmasligi va uning oqibatida aholi daryo bo‘ylariga joylashishi, oqibatida daryo ifloslanishi va turli hil chiqindilar ko‘payishiga olib keladi.

Yana bitta yuzaga keladigan muammolardan biri, transport va vositalarining tirbandligi hisoblanadi.



## XULOSA

Bu muammolarni yechimini topish uchun esa Sangardak hududida mehmonlarga qulay shart sharoitlar yaratilishi va arzon mehmon uylarini ko‘proq barpo qilishimiz darkor . Mashinalar uchun esa bir nechta avtoparklar tashkil qilsak, biz yanada betakror Sangardak sharsharasiga, ko‘proq chet el turistlarini ham jalg qilishimiz va go‘zal O‘zbekistonimizda, tog‘ turizmini yana ham rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shtan bo‘lar edik. Bu esa davlatimizni har tomonlama rivojlantirish va iqtisodiy yuksaltirish demakdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo‘lgan davlat dasturi», O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 15.04.1999 yildagi PF-№2286 farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risidagi qonuni». Xalq so‘zi gazetasini 14.09.1999.
3. N.A.ESANOV CONDITIONS AND FACTORS ENSURING THE DEVELOPMENT OF URBAN SETTLEMENTS Экономика и социум» <http://www.iupr.ru> №10(89) октябрь 2021
4. N.A.ESANOV, XUDOYOROV J.T., ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ SETTLEMENTS Экономика и социум» <http://www.iupr.ru> №4(95)-1 апрель 2022 год
5. [www.turclubmai.ru/heading/papers/49/](http://www.turclubmai.ru/heading/papers/49/)
6. [www.wttc.org](http://www.wttc.org) – Всемирный Совет по путешествиям и туризму
7. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik portali);
8. <http://www.library.ziyonet.uz>;
9. <http://www.elibrary.ru>;